

**Eshpulatova Muhayyo Mardon qizi,**  
Profi University "Pedagogika va psixologiya"  
kafedrası o'qituvchisi

## **NOTO'LIQ OILADA QIZ FARZANDNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK ASOSI VA TIZIMI**

**UOK: 159.9**

**[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL\\_2025\\_ISSUE\\_6\\_9](https://doi.org/10.34920/so/vol_2025_issue_6_9)**

---

### ***ESHPU LATOVA M.M. NOTO'LIQ OILADA QIZ FARZANDNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK ASOSI VA TIZIMI***

Noto'liq oilada qiz farzandni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy, psixologik va pedagogik jihatlar bilan kesishadigan o'ziga xos pedagogik asosi va tizimini shu o'rganib chiqadi. Ushbu maqolada o'zbek oilalarida qizlarga hunar o'rgatish, qiz bolani har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, ilm egallashiga ko'mak berish, buyuk muhaddis allomalarning oilaviy tarbiya xususida bildirgan fikrlari va o'zbek oilalarida juftliklar o'rtasida kuzatiladigan salbiy-axloqiy xususiyatlar ushbu maqolada o'z ifodasini topgan

Tayanch so'z va tushunchalar: qiz farzand tarbiyasi, madaniy boylik, oila, ruhan barkamol, axloq, ilm egallash, noto'liq oilada tarbiyalangan qizlarni kasb hunarga yo'naltirish.

---

### ***ЭШПУЛАТОВА М.М. ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ОСНОВА И СИСТЕМА ПОДГОТОВКИ К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ ДЕВОЧЕК В НЕПОЛНЫХ СЕМЬЯХ***

В неполной семье девочка исследует своеобразную педагогическую основу и систему подготовки ребенка к семейной жизни, которая пересекается с социальными, психологическими и педагогическими аспектами. В этой статье рассматриваются вопросы обучения девочек в узбекских семьях ремеслам, воспитания девочек в совершенстве, содействия овладению знаниями, мнения великих ученых-мухаддисов о семейном воспитании и негативные моральные особенности, наблюдаемые между парами в узбекских семьях.

Ключевые слова и понятия: воспитание девочек, культурное богатство, семья, духовное совершенство, нравственность, приобретение знаний, профессиональная ориентация девочек, воспитанных в полной семье.

---

### ***ESHPU LATOVA M.M. PEDAGOGICAL BASIS AND SYSTEM OF PREPARATION FOR FAMILY LIFE OF GIRLS IN SINGLE-PARENT FAMILIES***

This is how the specific pedagogical basis and system of preparing a girl for family life in a non-residential family intersects with social, psychological and pedagogical aspects. In this article, The views expressed by the great muhaddis allomas on family education and the negative-moral characteristics observed among couples in Uzbek families.

Key words and concepts: education of a girl, cultural wealth, family, spiritual perfection, morality, acquisition of science, orientation of girls brought up in a non-complete family to the profession.

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev «...Keyingi yillarda xalqimiz o'rtasida keng tarqalgan «O'z uyingni o'zing asra!» degan da'vatga bugun «O'z bolangni o'zing asra!» deb qo'shimcha kiritish vaqti keldi, deb o'ylaymanki»<sup>1</sup> deb alohida e'tirof etgani bejiz emas. Chunki oilada, farzandlar ta'lim-tarbiyasiga va odob-axloqiga e'tibor qaratilayotgan bir vaqtda oilaviy ajrimlar sabab ota yoki onasiz tarbiya topayotgan bolalar talaygina.

**Mavzuning dolzarbligi.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati noto'liq oilada bola shaxsi shakllanishining pedagogik-psixologik xususiyatlarining aniqlashtirilganligi, noto'liq oilada bola shaxsini shakllantirishga doir ijtimoiy-pedagogik faoliyat mazmunining yoritib berilganligi, ijtimoiy-pedagogik faoliyat bosqichlari, yo'nalishlarining aniqlanganligi, "Umumiy pedagogika" fanining "Pedagogika nazariyasi" moduli, "Oila pedagogikasi", "Ijtimoiy pedagogika" fanlari mazmunini nazariy jihatdan boyitishga xizmat qilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

**Maqsad.** Noto'liq oilada qiz farzand shakllanishining ijtimoiy-pedagogik xususiyatlarini aniqlashtirish hamda mazkur jarayon samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy qarashlarga to'xtalish.

#### **Mavzu bo'yicha boshqa olimlar ilmiy asarlari qisqacha tahlili.**

Respublikamiz olimlaridan F.Akramova, M.Davletshin, R.Djuraev, R.Dushanov, I.Jabborov, M.Inomova, A.Kadirova, V.Karimova, X.Karimov, M.Mamatov, A.Munavvarov, O.Musurmanova, G.Niyazmetova, N.Raxmanqulova, M.Salaeva, Z.Salieva, R.Samarov, N.Sog'inov, O.Turaeva, E.Sh.Usmanov, M.Utepbergenov, M.Fayzieva, Yu.Shaamirova, K.Shoniyozov, G'.Shoumarov, N.Egamberdieva, G.Yunusova, G.Yadgarova, E.G'oziev, U.Qodirov, O.Hasanboevalarning ilmiy ishlarida oila va nikoh, oilada qiz bola shaxsini shakllantirish, oilada bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik, etno-pedagogik, ijtimoiy-pedagogik jihatlari, noto'liq oilada qiz farzandni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalalari tadqiq etilgan.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofliqini asrash – davr talabi» mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqi

**Maqolaning ilmiy mohiyati.** Ushbu maqolaning ilmiy ahamiyati noto'liq oilada qiz farzand shaxsi shakllanishining pedagogik-psixologik xususiyatlarining aniqlashtirilganligi, noto'liq oilada qiz bola shaxsini shakllantirishga doir ijtimoiy-pedagogik faoliyat mazmunining yoritib berilganligi, ijtimoiy-pedagogik faoliyat bosqichlari, yo'nalishlarining aniqlanganligi, "Umumiy pedagogika" fanining "Pedagogika nazariyasi" moduli, "Oila pedagogikasi", "Ijtimoiy pedagogika" fanlari mazmunini nazariy jihatdan boyitishga xizmat qilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqotning obyektni** noto'liq oilada qiz farzand shaxsi shakllanishining ijtimoiy-pedagogik muammolarini aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik ta'sir mazmuni, usul va vositalari tashkil qiladi.

**Tadqiqotda qo'llanilgan usullar** noto'liq oila farzandlarining tarbiyasidagi muammolarni aniqlovchi ijtimoiy-pedagogik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Oila men uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki, avvalambor qayerda ishlashidan qat'iy nazar, kim bo'lishidan qat'iy nazar agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarbiyaga alohida e'tibor bermasa, hech qachon natija bo'lmaydi. Shuning uchun men farzandlarimning tarbiyasiga juda katta e'tibor beraman. Har bir farzandimga ham, nevaramga ham alohida o'zimning munosabatim bor. Har bir nevaramning alohida xarakterini bilaman, orzusini, istagini bilaman"<sup>2</sup>.

Eramizdan avvalgi 528-529 yillar orasida buyuk mutafakkir Zardusht tomonidan yaratilgan "Avesto" kitobida ham ta'lim-tarbiyaga, axloq-odobga oid qator g'oya va qarashlarni ko'rish mumkin. "Avesto"da ta'kidlanishicha, tarbiya hayotning tayanchi, shu boisdan har bir yoshni yaxshi o'qish va yozishga o'rgatish lozim. Qiz farzandning yosh paytidanoq mehnat qilib, mehnatning tagi rohat ekanligini anglatish, uy-ro'zg'or qurollarini asrash, foydalanish yerga ekin ekishda ko'maklashish va chorva bilan

<sup>2</sup> Oila-pedagogikasi.-Hasanboyeva-O.pdf <https://library-samdukf.uz/wp-content/uploads/2023/01/Oila-pedagogikasi.-Hasanboyeva-O.pdf>

shug'ullanishga o'rgatilishi shart<sup>1</sup>. Zardushtning fikricha, yaxshi va ezgu ishlar yaratish uchun kishi mehnat qilishi zarur, o'z qo'llari bilan moddiy noz-ne'matlar yaratmas ekan, u yashash laz-zatini ham his qilmaydi, hayotning qadriga ham yetmaydi. Zardushtiylik dinida ham qizlarga va ularning tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, qizlarga ehtirom ko'rsatish ularni avaylab asrash va g'amxo'rlik qilish, ayniqsa homilador ayollarni e'zozlashga katta ahamiyat qaratilgan<sup>2</sup>.

Islom dini ayol kishini ilmi, ma'rifatli bo'lishga buyuradi. Tarixdan ma'lumki, ayollar ham aynan islom dini rahnamoligida ilm-fan va ma'naviyat-madaniyatning eng yuqori darajasiga ko'tarilganlar.

Islom, qadimgi davrlardagidek ayollarga nafaqat uyni boshqarish va ro'zg'or yuritish bo'yicha yuksak vazifalarni yuklaydi, balki uni qo'llab-quvvatlash orqali uning sharafini himoya qiladi, ayollarga erining ruxsati va urug' oqso-qollarining marhamati bilan faol turmush tarzini olib borish uchun keng imkoniyatlar beradi. Islom ayolga ijtimoiy va siyosiy masalalarni hal qilishda faol ishtirok etish, ta'lim olish, tijorat bilan shug'ullanish va hatto davlat boshqaruvida ishtirok etishni taqiqlamaydi<sup>3</sup>.

Islom ayollarning hurmat-ehtiromini o'rniga qo'yib, ayollik latofatlarini saqlab qolish, ayollik vazifalarini to'liq ado etish orqali o'z jamiyatlariga, vatanlariga, dinlariga kerakli xizmatni ado etishlari uchun barcha sharoitni yaratib bergan<sup>4</sup>.

Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomni o'z qizlari bilan suhbatlashayotgan hollari juda ko'p uchrab turar edi<sup>5</sup>. U ularni tarbiyalar edi, ularga mehribonlik qilib, otalik mehri bilan munosabatda bo'lib, ularni o'z uylarida mehmonlar deb atadi. Islomda ayolning oiladagi e'tiborli o'rni borligi ko'rsatilgan, oilada farzand

tarbiyasi to'liqligicha soliha xotin va ona bo'lish kabi buyuk mas'uliyat yuklangan ayollarga bog'liqligi belgilab qo'yilgan. Ayol uyda nafaqat xotirjamlik va osoyishtalikni saqlaydi, balki yosh avlodni ham tarbiyalaydi. U o'sib borayotgan qizlarning tarbiyasi uchun ham javobgardir.

Sohibqiron Amir Temur o'z tuzuklarida yozadi: "Kelin izlamoqqa e'tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko'rdim. Kelin bo'lmishning nasl-nasabini, yetti pushtini surishtirdim . . . sog'liq . . . jismonan kamolotini aniqladim . . . barcha qusurlardan holi bo'lsagina . . . kelin tushirdim"<sup>6</sup>. Bu so'zlarda o'z qonining tozaligini saqlash, uning aynishiga yo'l qo'ymaslik va uni oldini olishga intilishini ko'rish mumkin. Zero, qondagi, ruhdagi aynish – millatning ming yillik qadriyatlarini nobud qilishi mumkin.

Aynan shu so'zlardan ko'rinib turibdiki Sohibqiron Amir Temur davrida ham qizlar va ularning tarbiya masalasiga alohida e'tibor berilgan.

Noto'liq oilada qiz farzand tarbiyasida qizlarni hayotini to'g'ri uyushtirish ularning vaqtdan to'g'ri va unumli foydalanishning asosiy garovi ekanligini ota yoki onalar o'z farzandlariga uqti-rishlari lozim. Oila tarbiyasi masalalari bo'yicha Abu Ali Ibn Sino maxsus «Tadbir al-manozil» nomli asarini yozgan<sup>7</sup>. Unda olim ota-onaning qiz tarbiyasidagi vazifalarini yoritgan. Asarda ota-onaning vazifasi va burchiga, oila munosabatlariga to'xtalar ekan, ayniqsa, ota-onalarning oilada mehnatsevarligi bilan farzandlarini ham kasb va hunarga o'rgatish borasida muhim fikrlar bayon etadi. Ibn Sino tarbiyaviy qarashlarida oila va oilaviy masalalarga keng o'rin berilgan. Ota oilada o'z farzandlariga har tomonlama: yurish-turishda, nutq odobida, so'z madaniyatida, o'zaro muomala jarayonida, eng muhimi amaliy ish faoliyatida to'g'rilik va haqqoniylik, samimiylikka namuna bo'lmog'i kerak. Oilada farzand tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yishning asosiy vositasi - uning ma'naviy olamida e'tiqodni shakllantirish deb hisoblagan edi olim.

Yusuf Xos Xojib «Qudatg'u bilig» asarida oilaviy maishiy turmush muammolariga ham katta e'tibor beradi. U kishilarni uylanib, oila qurishidan boshlab, farzand tarbiya etish, oil-

<sup>1</sup> [https://arm.tdpushf.uz/kitoblar/fayl\\_773\\_20210505.pdf](https://arm.tdpushf.uz/kitoblar/fayl_773_20210505.pdf)  
[https://arm.tdpushf.uz/kitoblar/fayl\\_773\\_20210505.pdf](https://arm.tdpushf.uz/kitoblar/fayl_773_20210505.pdf)

<sup>2</sup> [https://arm.tdpushf.uz/kitoblar/fayl\\_773\\_20210505.pdf](https://arm.tdpushf.uz/kitoblar/fayl_773_20210505.pdf)  
[https://arm.tdpushf.uz/kitoblar/fayl\\_773\\_20210505.pdf](https://arm.tdpushf.uz/kitoblar/fayl_773_20210505.pdf)

<sup>3</sup> [https://renessans-edu.uz/files/books/2023-11-03-07-25-24\\_e7823bb4eea9ad6631827b72aad19576.pdf](https://renessans-edu.uz/files/books/2023-11-03-07-25-24_e7823bb4eea9ad6631827b72aad19576.pdf)  
[https://renessans-edu.uz/files/books/2023-11-03-07-25-24\\_e7823bb4eea9ad6631827b72aad19576.pdf](https://renessans-edu.uz/files/books/2023-11-03-07-25-24_e7823bb4eea9ad6631827b72aad19576.pdf)

<sup>4</sup> 2023-11-03-07-25-24\_e7823bb4eea9ad6631827b72aad19576.pdf [https://renessans-edu.uz/files/books/2023-11-03-07-25-24\\_e7823bb4eea9ad6631827b72aad19576.pdf](https://renessans-edu.uz/files/books/2023-11-03-07-25-24_e7823bb4eea9ad6631827b72aad19576.pdf)

<sup>5</sup> DARSLIK UMUMIY.PED.

<sup>6</sup> 1786031.pdf [http://fayllar.org/pars\\_docs/refs/1787/1786031/1786031.pdf](http://fayllar.org/pars_docs/refs/1787/1786031/1786031.pdf)

<sup>7</sup> 1786031.pdf [http://fayllar.org/pars\\_docs/refs/1787/1786031/1786031.pdf](http://fayllar.org/pars_docs/refs/1787/1786031/1786031.pdf)

aning moddiy ta'minotini yuritishgacha bo'lgan eng zaruriy vazifalarini birma-bir bayon etadi<sup>1</sup>. Ota-onalar nazoratida bo'lgan qizlarning mas'uliyat hissi rivoj topadi. Shu sababli ham qiz tarbiyasida ota-onaning mavqei alohida ahamiyatga egadir. Ular tanlagan to'g'ri yo'l farzandlarining kelajagi, kamoloti uchun nihoyatda muhimdir<sup>2</sup>. Jamiyatda farzandlari xulq-atvoriga qarab ota-onalariga baho berilishini aytib ularni ogohlantiradi. Mirzo Ulug'bekning qarashlarida bolaning bilim olishga bo'lgan qiziqishi, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit muhim o'rin egallashi uqtiriladi. Shunday ekan, avvalambor, bola tarbiyasida oila muhitini to'g'ri tashkil qilish darkor. Kaykovus «Qobusnoma» pandnomasida o'z farzanding sening haqingda qanday bo'lishini tilasang, sen ham ota-onang haqida shunday bo'lgil, nedinkim, sen ota-onang haqida ne ish qilsang, farzanding ham sening haqingda shundoq ish qilur, chunki farzand mevaga, ota-ona mevali daraxtga o'xshaydir» deb yoshlarni ota-onasini hurmat qilishga, e'zozlashga, mehr-oqibatli bo'lishga da'vat etadi.

Hammamizga ma'lumki, to'liq oilalarda turmush tarzi uchun zarur bo'lgan hamma narsalar muhayyo bo'ladi va bolalar oilalarda bekamuko'st katta bo'lishadi. Noto'liq oilalarda uchraydigan turli muammolarni ota yoki ona hal qilishga harakat qilishadi. Bunday holatlarda qiz farzand tarbiyasidagi mas'uliyat asosan bir kishining ya'ni otaning yoki onaning zimmasiga tushadi<sup>3</sup>.

Bilamizki noto'liq oila deb er va xotinning ajralishi. Yoki ota-onaning biri vafot etishi. Ayrim xollarda nikohsiz farzandning dunyoga kelishi. Hozirgi kunda oilalarning parokanda bo'lishi, nosog'lom muhitni yuzaga kelishi farzandlarni qarovsiz qolishi, noto'liq oilani shakllanmasligi uchun, mamlakatimizda nikoh va oila tushunchasi ular uchun belgilab berilgan qoida va mezonlar mavjud. Unga ko'ra har-

bir bola o'z oilasida tarbiyalanish, o'zining ota onasi qaramog'ida tarbiyalanib voyaga yetishga haqli va har bir ota-ona farzandi tarbiyasi uchun mas'uldir.

Ajrim bo'lgan oilalarning 70 foizi yosh oilalar bo'lib ularda o'rtacha 2.5 ta bola chala yetim bo'lib qoladi<sup>4</sup>. Bu kabi noto'liq oilalarda o'ziga yarasha ijtimoiy iqtisodiy muammolar paydo bo'ladiki, shu bois ham davlatimizni oila siyosatining, mazmuni noto'liq oilalar sonini kamaytirishga qaratilgandir. Bunda masalaning moddiy tomonidan ham, uning ma'naviy-axloqiy tomonlari bizni ko'proq tashvishga soladi. Oila funksiyalarini past darajada bajarayotgan noto'liq oila. Oila funksiyalarining yarmidan ko'pini bajarayotgan bolalar, tarbiyasini o'z xoliga tashlab qo'ygan, ko'pincha o'z onalik vazifasini deyarli bajarmayotgan, ichkilikka berilgan.

Noto'liq oilada qizlarning axloqiy jihatdan tarbiyasida oqsoqlanish, oiladagi yetishmovchiliklar ya'ni iqtisodiy tomondan qiyinchiliklar mavjuddir. Aynan tashlab ketilgan ayol farzandlarini otasi bilan muloqoti va uchrashuvlari cheklab qo'yilsa, u holda ota har oyda farzandlari uchun to'lanayotgan aliment pullarni nima uchun, qayerga ishlatayotganini surishtira boshlaydi. Natijada ikki o'rtada farzandlarning o'ziga og'dirib olishi uchun ota yoki ona turli xil gapso'zlar, aldovlar yuzaga kela boshlaydi. Albatta bunday holat oiladagi farzandlarning tarbiyasiga juda ham katta salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Oila vazifalarini, mas'uliyatlarini yuqori darajada bajarayotgan noto'liq oila-bu vaqtincha yoki uzoq yillar davomida noto'liq bo'lib, oilaning barcha funksiyalarini to'liq ravishda bajarib kelayotgan noto'liq oila. Bunday oilalarga aksariyat xolda yetuk yoshdagi avlod - buva, buvilar yordam beradilar va bola tarbiyasi bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etish, moddiy ta'minot kabi funksiyalar to'liq bajarilishida o'zlarining hissalarini qo'shadilar. Bunda (agar bevalar oilasi bo'lmasa) ajrashgan oila bilan yashamayotgan turmush o'rtog'i ham oila funksiyalarining bajarilishiga imkon darajasida o'z tashabbusi bilan hissa qo'shadi.

Noto'liq oilada farzandlarning ayniqsa qiz farzandning axloqiy jihatdan tarbiyasida oqsoqlanish, oiladagi yetishmovchiliklar ya'ni iqtisodiy

<sup>1</sup> <https://api.ziynet.uz/uploads/books/49959/5de77d044c599.pdf> <https://api.ziynet.uz/uploads/books/49959/5de77d044c599.pdf>

<sup>2</sup> O'zbek urf-odatlar va qiz farzand tarbiyasining milliy qadriyatlaridagi o'rni <https://proza.uz/posts/ozbek-urfodatlar-va-qiz-farzand-tarbiyasining-milliy-qadriyatlaridagi-orni-Or9nVcOxlkquJBy-Ez9eBw>

<sup>3</sup> 2024-12-02-06-08-30\_20158cff1fe45b5b119a7b251322c4c6.pdf [https://renessans-edu.uz/files/books/2024-12-02-06-08-30\\_20158cff1fe45b5b119a7b251322c4c6.pdf](https://renessans-edu.uz/files/books/2024-12-02-06-08-30_20158cff1fe45b5b119a7b251322c4c6.pdf)

<sup>4</sup> Педагогические условия формирования социальных компетенций у обучающихся в начальной школе

tomondan qiyinchiliklar mavjuddir. Aynan tashlab ketilgan ayol farzandlarini otasi bilan muloqoti va uchrashuvlari cheklab qo'yilsa, u holda ota har oyda farzandlari uchun to'lanayotgan aliment pullarni nima uchun, qayerga ishlatayotganini surishtira boshlaydi. Natijada ikki o'rtada farzandlarning o'ziga og'dirib olishi uchun ota yoki ona turli xil gap-so'zlar, aldovlar yuzaga kela boshlaydi. Albatta bunday holat oiladagi farzandlarning tarbiyasiga juda ham katta salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bu borada yigit-qizlar ayniqsa noto'liq oilada voyaga yetayotgan farzandlar tarbiyasida ijtimoiy institutlar – bog'cha, maktab, oliy ta'lim muassasalari va mahallaning rolini oshirish, oilaga psixologik pedagogik va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tarmoqlarini yanada mustahkamlash zarurati ko'rinadi. Shunga ko'ra, oilalar bilan ish olib boruvchi ijtimoiy institutlar hamda davlat tashkilotlari faoliyatida foydalanishi uchun qo'yidagilarni tavsiya qilinadi:

- yosh qizlar va ayollarning norasmiy shar'iy nikoh qurishlarining oldini olish;
- yoshlar o'rtasida oila va farzand mas'uliyati haqidagi bilimlar berishni kuchaytirish;
- farzandlarni tarbiyalash va o'qitish, oilada sog'lom psixologik muhit yaratish yo'nalishlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borish;
- sog'lom munosabatli oilani shakllantirishning milliy-an'anaviy tarixi hamda oila haqidagi bilim darajasini yuksaltirishda zarur mabzalarni targ'ib etish;
- er-xotin, ota-ona va bolalarning axloqiy va huquqiy majburiyatlarini tartibga solishga qaratilgan turmush o'rtoqlar o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi normalarni qayta ko'radi.

Qiz bola tarbiyasi o'ta nozik tarbiyadir. Xalqimizda «Onasini ko'r, qizini ol», degan gap bor. Bu gapning zamirida katta ma'no mujassam. Oilada qiz bola onasining yurish-turish munosabati, hunarmandligidan dars oladi, shu xislatni hayotga tatbiq etishga harakat qiladi.

Yoshlikdan qizlarni ozodalikka, shirinsuxanlikka, o'zidan kattalarni doimo hurmat qilib borishga undash va o'rgatish lozim. Qiz bola nomiga bir dog' tushsa, bu dog' hech qachon ketmaydi.

Allalarda onaning mehri, samimiyati ufurib turadi. Bu esa bola psixikasida mutlaq ishonch

hissini paydo qiladi. Qadimgi Hindiston falsafiy maktablaridan bo'lgan Nyaya ta'limotiga ko'ra<sup>1</sup>, hissiy qabul qilishga tegishli bo'lmagan narsa va hodisalar real emas. Garchand bu fikr yakuni bahstlab bo'lsa-da, hissiy qabul qilishning nechog'lik muhimligi to'g'risidagi qarashlariga qo'shilish mumkin.

Davr ota-onalardan farzand tarbiyasida keng bilim va faol harakatga ega bo'lishni taqozo etmoqda. Yapon olimlari ota-onalarga farzand tarbiyasida o'z dasturlariga ega bo'lishni tavsiya etadilar. Ushbu dasturda farzand bilan amalga oshiriladigan ishlar ko'lamini nafaqat oyma-oy, balki kunma-kun aniq belgilanishi lozim.

Noto'liq oilada qiz farzand shakllanishiga oila muhitining ta'siri beqiyos hisoblanadi. Qorachay xalqi oila tarbiyasi masalalari yuzasidan tadqiqot olib borgan M.Chomayevaning fikricha, qorachay xalqida bolalar tarbiyasida etnik manzara hali ular go'dakligidanoq maxsus tashkil qilinmagan institut sifatida namoyon bo'ladi<sup>2</sup>.

Pedagogika fanlari doktori, professor D.Sharipovaning fikricha, go'dak tug'ilgandayoq uning miya hujayralarida neyronlar ham birga rivojlanadi<sup>3</sup>. Oila muhiti mo'tadil bo'lsa, ona tomonidan erkalovchi, ardoqlovchi allalar qizlarga nisbatan bevosita tarbiyaviy ahamiyat kasb etib borsa, bunday bolalarning neyronlari quyuq, faol, harakatchan bo'ladi. Bunday qizlar ulg'ayganda jamiyatning tashabbuskor, jamoatchi, faol a'zosiga aylanadi. Oila muhiti nosog'lom, ona ma'naviyatdan yiroq bo'lsa, go'dagini ardoqlab allalar aytmasa, bunday bolalarning miya hujayralarida neyronlar siyrak, nafaol bo'ladi. Bunday bolalar ishyoqmas, dangasa, loqayd bo'lib ulg'ayadilar.

Sharq xalqlarida qiz bolalarning tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilgan, moddiy ta'minoti yuqori bo'lgan oilalar pokiza, oqila, dono, katta hayotiy tajribaga ega ayollarni o'z qizlari uchun enaga etib tayinlagan va ularga qizlarining tarbiyasini ishonib topshirganlar. Oila boshliqlari bo'lgan erkaklar oilaning moddiy ta'minotini yaratish ishi bilan band bo'lganliklari bois, ona doimo farzandlari yonida bo'lib, ularning tar-

<sup>1</sup> Rahimova F., Telmanov T. Noto'liq oilada bola shaxsini shakllantirishning ijtimoiy pedagogik tizimi // «Science and Education» Scientific Journal / [www.openscience.uz](http://www.openscience.uz)

<sup>2</sup> Saidova B.N. Pedagogika tarixi va nazaryasi. - Toshkent: "Bookmaniy print", 2023.

<sup>3</sup> Отчет Золотарев В.В. исправленный.doc

biyasi bilan shug'ullangan. Shu sababdan ona farzandlarning kamoloti uchun javobgar, mas'ul shaxs hisoblangan. Oilada qizlar tarbiyasini tashkil etishda qizlarda ana shu mas'uliyatli vazifani bajarish, shuningdek, ro'zg'or hamda oila xo'jaligini yuritish, oilaning boshqa a'zolariga nisbatan g'amxo'rlik ko'rsatish borasidagi muayyan ko'nikma va malakalarni shakllantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Xalqimiz oilada qizlar tarbiyasini tashkil etish borasida asriy tajribaga ega. Mazkur tajriba mazmuni sharqona odob, axloq, hayo, ibo, pokizalik hissi bilan yo'g'rilgan pand nasihatlar, mutafakkirlarning qarashlari, ilmiy-nazariy va amaliy g'oyalardan tashkil topgan. Uzoq yillar davomida oilaviy munosabatlarni yo'lga qo'yishda ana shu tajribaga tayanib ish ko'rildi.

Ilm-fan, texnika va texnologiya taraqqiyotining jadal sur'atlar bilan rivojlanishi oilada qizlar tarbiyasini tashkil etish ishi mazmuniga nisbatan yangidan-yangi talablarni qo'ymoqda. Zero, ayollarning ijtimoiy mavqeini oshirish, ularning ijtimoiy faolligini ta'minlash, tafakkur doirasi va dunyoqarashini kengaytirish muammolari ijtimoiy munosabatlarning urlashuvi va murakkablashuvi sharoitida har qachongidan ham dolzarb ahamiyatga ega<sup>1</sup>.

Qiz bolaning sha'ni... Bu haqda juda ko'p va har so'ziga alohida urg'u, alohida salmoq berib gapiriladi. Insoniy fazilatlar, ma'naviy qadriyatlar haqida so'z ketsa, ayni shular qiz bolada eng oliy darajada bo'lishi talab qilinadi. Axir u qiz bolada.

### **Millatning ko'rki, millatning kelajagi.**

Oilalar har bir jamiyatning negizi hisoblanadi. O'zbek oilasida esa qiz farzandning tarbiyasiga alohida e'tibor qaratiladi. Qiz bola – kelajakdagi ona, oila bekasi, millatning davomchisi hisoblanadi. Shu bois, qiz farzandni tarbiyalash mas'uliyati juda katta hisoblanadi.

O'zbek oilalarida qizlarga quyidagi qadriyatlar singdiriladi:

**1. Halollik va odoblilik:** Qiz bolaga bolalikdan halol va odobli bo'lishning ahamiyati o'rgatiladi. Oilada ota-onaning so'zlariga quloq solish, kattalarga hurmat, kichiklarga g'amxo'rlik qilish singari fazilatlar tarbiyalanadi.

**2. Uy yumushlariga o'rgatish:** Qizlarni kelajakdagi oila hayotiga tayyorlash uchun ularga tikuvchilik, oshpazlik, tozalik va tartibni saqlash kabi ko'nikmalar yoshligidan o'rgatiladi.

**3. Ma'naviy va intellektual rivojlanish:** Qizlarga kitob o'qish, san'at va hunarmandchilik bilan shug'ullanish orqali bilim olish va ma'naviy barkamollikka erishish imkoniyati yaratiladi. Zamonaviy o'zbek oilalarida qizlarning ta'lim olishi, chet tillarini o'rganishi ham rag'batlantiriladi.

**4. Ayollik latofati va sabr-toqatlilik:** O'zbek oilalarida qizlarga ayollik fazilatlarini, jumladan latofat, mehribonlik va sabr-toqatlilik singdiriladi. Bu fazilatlar kelajakda qizlarning oilaviy hayotida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Zero noto'liq oilada tarbiya topgan qizlarda bu sifatlar kimtirligi kuzatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV bobi «Oila» deb nomlanadi. Ana shu bobning 63, 64, 65, 66-moddalarida oilaning huquqiy asoslarini belgilaydigan qoidalar mustahkamlab qo'yilgan. Asosiy qonunimizning oilaga bag'ishlangan XIV bobining 63-moddasida «Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega. Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqligiga asoslanadi» deb belgilangan<sup>2</sup>.

Oila bo'lib yashash barcha mahluqotlar orasida faqat inson zotigagina xosdir. Shu bois oila jamiyatning birinchi va birlamchi bo'g'i hisoblanadi. Shunga ko'ra hech mubolag'asiz aytish mumkinki, oila fuqarolik jamiyatining tayanch nuqtasi, tayanch tuzilmasidir. Chunki bu muqaddas dargohda nafaqat inson dunyoga keladi, balki u ma'nan va axloqan tarbiya topadi<sup>3</sup>.

O'zbek oilasi serfarzandlik, bolajonlik, oila-parvarlik kabi ijobiy xususiyatlari bilan ajralib turadi.

**Xulosa. Noto'liq oilada tarbiyalanayotgan qiz bola** shunchaki qiz bola bo'lib qolishi mumkin emas. U juda nazokatli, iffatli, iboli, sabr-bar-doshli, oqila, mehribon bo'lishi kerak. Hattoki, qiz bolaga berilgan nisbat, o'lchov, mezonlar

<sup>1</sup> <https://api.ziyounet.uz/uploads/books/49959/5de77d044c599.pdf> <https://api.ziyounet.uz/uploads/books/49959/5de77d044c599.pdf>

<sup>2</sup> O'zbek urf-odatlar va qiz farzand tarbiyasining milliy qadriyatlaridagi o'rni <https://proza.uz/posts/ozbek-urfodatlar-va-qiz-farzand-tarbiyasining-milliy-qadriyatlaridagi-orni-Or9nVcOxlkquJBy-Ez9eBw>

<sup>3</sup> Oila-pedagogikasi.-H asanboyeva-O.pdf <https://library-samdukf.uz/wp-content/uploads/2023/01/Oila-pedagogikasi.-Hasanboyeva-O.pdf>

ham o'rtamiyona, yarim, nim-ta'rif, chala nisbat bo'la olmaydi. Ular ustunning yo eng tepasi, yo eng pasti bo'ladi. Ayb yoki gunoh ish qilib qo'ygan boshqa hamma kishi kechirilishi mumkin. Faqat qiz bola kechirilmaydi. Qiz bolaga kelganda hukm ham g'oyat muxtasar: «O'g'il bola shu ishni qilganda - boshqa gap edi. Ammo u - qiz bola-ya».

O'zbek qizlarini tirishqoq bo'lishi uchun vaqtni o'tkazmay zehni o'tkir qilish uning ustiga yuklanadigan qizlik, xotinlik, yosh onalik kabi ishlarini bajarishda kamchilik keltirma-

sin. Aksincha o'zingiz bilgan narsalaringizni, tajribalaringiz uchun hech bir vaqtda mag'rur bo'lmaslik kerakligini uqtiradi. Agar qizlar ana shu sifatlarni ya'ni o'zbek qizlariga xos sifatlarni egallasa, o'zlarida tarkib toptirsa, bunday qizlar komil onalar ya'ni insonlar bo'lganligini ko'rsatadi. Buning uchun ularni ayblash emas, balki boshqalarga ibrat qilib ko'rsatishga asos bo'lishini qizlar bilishlari kerak. Aslida millatning, mamlakatning ijtimoiy hayoti ana shunday sifatli qizlarning tarbiyalariga bog'liq deb xulosa qilsak to'g'ri bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mavlonova R.A. Umumiy pedagogika. – Toshkent: 2018.
2. O'zbek urf-odatlar va qiz farzand tarbiyasining milliy qadriyatlaridagi o'rni. - <https://proza.uz/posts/ozbek-urfodatlar-va-qiz-farzand-tarbiyasining-milliy-qadriyatlaridagi-orni-Or9nVcOxlkquJBy-Ez9eBw>
3. Sharq mutafakkirlari va pedagog olimlarning bola tarbiyasi to'g'risidagi qarashlari. - <https://elibrary.ru/item.asp?id=4832618>
4. Hasanboyeva O. Oila pedagogikasi. – Toshkent: 2007.
5. Saidova B.N. Pedagogika tarixi va nazaryasi. - Toshkent: "Boookmaniy print", 2023.
6. Rahimova F., Telmanov T. Noto'liq oilada bola shaxsini shakllantirishning ijtimoiy pedagogik tizimi // «Science and Education» Scientific Journal / [www.openscience.uz](http://www.openscience.uz)
7. Shaumarova Z.A. Noto'liq oilaning ijtimoiy-pedagogik muammolari. // "Замонавий таълим / Современное образование" илмий-амалий оммабоп журнали (Ўзбекистон), 2017, 6-сон, 53-58 б.
8. Rahimova F., Telmanov T. Noto'liq oilada bola shaxsini shakllantirishning ijtimoiy pedagogik tizimi // «Science and Education» Scientific Journal / [www.openscience.uz](http://www.openscience.uz)